XALQ DEPUTATLARI YANGIOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 11-mart VII-17-26-3-54-K/26 Yangiobod tumani

Yangiobod tumani bo‘yicha 2026-yilda alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori hamda Yangiobod tuman soliq inspeksiyasining taklifiga asosan tumanda 2026-yilda alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 387-sonli qarorining 2-xatboshi “v”-bandiga muvofiq xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Deputatlar tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib Yangiobod tumani bo‘yicha 2026-yil uchun alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan

alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman soliq inspeksiyasi **(A.Suyunov)**ga belgilangan tartibda yig‘imlarning to‘liq va o‘z vaqtida undirilishini ta’minlash;

- tadbirkorlik subyektlariga mazkur qarorning mazmun-mohiyati yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish vazifasi yuklatilsin.

4.Yig‘imlardan tushgan tushumlar to‘liq miqdorda tuman byudjetiga yo‘naltirilsin.

5.Ushbu qaror rasman “Yangiobod ovozi” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining veb-saytiga joylashtirilsin.

6.Ushbu qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari **R.Abdug‘aniyev** zimmasiga yuklansin.

7.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

8.Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran 3 oydan keyin kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi

TILAKOV XOLBOYKUL ABDUGANIYEVICH

Xalq deputatlari Yangiobod tumani
Kengashining
2026-yil 11-martdagi
VII-17-26-3-54-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Yangiobod tumani bo‘yicha 2026-yilda alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan miqdori

T/R	Yig‘im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)	
		O‘RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	2026-yil uchun belgilangan yig‘im miqdori
1.	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	345 000
2.	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	172 500